

**HARBIY FANLARNI O'QITISH JARAYONIDA TINGLOVCHILAR ONGIGA
MILLIY IFTIXOR G'OYALARINI SINGDIRISHNING PEDAGOGIK-
TARBIYAVIY JIHATLARI**

Akrambaev Xasan Mamadjanovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka olish instituti katta

o'qituvchisi p.f.b.f.d., (HhD), dotsent.

Tel. 94. 679 30 59

Annotatsiy: *Mazkur maqola harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilar ongiga milliy iftixor g'oyalarini singdirishning pedagogik-tarbiyaviy jihatlarining tarixiy manbalar, asosiy tarkibiy elementlari, tinglovchilarni harbiy yo'nalishda tayyorlashning pedagogik-tarbiyaviy jihatlari, o'qituvchining asosiy vazifalari va pedagogik-tarbiyaviy jihatlari, shuningdek o'qituvchining yuksak mahoratlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ichki ishlar organlari, harbiy fanlar, milliy iftixor, pedagogik-tarbiyaviy jihatlari, o'qituvchi, pedagogik faoliyat, tinglovchilar, harbiy-pedagogika, tarbiyalashni takomillashtirish, psixologiya.*

Аннотация: *В данной статье раскрыты педагогические воспитательные аспекты, внедрения идей национальной гордости в сознание слушателей в процессе преподавания военных дисциплин, рассмотрены исторические источники, основные составные элементы, педагогические воспитательные аспекты подготовки слушателей в военном направлении, основные задачи преподавателя и его педагогический воспитательная роль, а также высокое профессиональное мастерство преподавателя.*

Ключевые слова: *Органы внутренних дел, военные дисциплины, военная наука, национальная гордость, педагогические воспитательные аспекты, учитель, педагогическая деятельность, слушатели, военная- педагогика, совершенствовать воспитание, психология.*

Annotation: *This article reveals the pedagogical and educational aspects of introducing the ideas of national pride into the consciousness of students during the teaching of military disciplines. It examines historical sources, key components, pedagogical and educational aspects of training students in the military field, the main tasks of the instructor and their pedagogical and educational role, as well as the high professional skill of the instructor.*

Keywords: *Internal affairs bodies, military sciences, national pride, pedagogical and educational aspects, teacher, pedagogical activity, students, military pedagogy, improvement of education, psychology.*

Mamlakatimiz Ichki ishlar vazirligi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi ichki ishlar organlari uchun mutaxassislar tayyorlashning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, xodimlarning malakasiga qarab xizmat bo'yicha o'sishini ta'minlash,

shuningdek, kadrlarning intellektual va professional salohiyatini yanada oshirish, ta'lim tizimini sifatli joriy etish, o'quv jarayonini eng zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida tashkil qilish, professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish, – deb ta'kidlangan²¹

Tarixdan bizga ma'lumki, sharqda bolalarning yoshi, saviyasi va kuch-quvvatiga qarab, ularga harbiy o'yinlar o'rgatilgan. Jang san'ati sirlari bilan tanishtirib borilgan. Ayniqsa, sport turlari ichida kurash, suzish, chavandozlik, poyga va uloq singari ommaviy musobaqalar o'smirlarni har jihatdan chiniqtirgan. Bola ulg'aygan sari o'q otib, nishonga aniq urish, nayza ishlatish va qilichbozlik sirlarini puxta o'zlashtirgan. Bu jarayonda ularga ustoz tomonidan o'z yurtining erki va ozodligini saqlash hamda uni himoya qilish lozimligini, agar u bu vazifani bajara olmasa, tutqunga aylanishini, o'zi ham, xalqi ham qul bo'lishini, ona yurti vayron bo'lib, boyliklari talanishini o'rgatishgan. Bu esa vatanparvarlik tarbiyasining bir ko'rinishi hisoblangan.

Ichki ishlar vazirligi malaka oshirish institutini rivojlantirish maqsadlariga muvofiq oliy ta'lim muassasasining barcha bo'g'inlarida harbiy-pedagogik sifat o'zgarishlari amalga oshiriladi. Uning asosiy tarkibiy elementlari quyidagilardan iborat:

- tinglovchilarning o'quv mashg'ulotlari davomida nazariy va amaliy tayyorgarligi;
- tinglovchilar bilan harbiy tayyorgarlik ishlarini mashg'ulotdan tashqari olib borish;
- tinglovchilarning mustaqil o'quv va tadqiqot faoliyati;
- mavjud oqotar qurollar, harbiy texnika, maxsus vositalarning ta'minlanishi.
- o'qituvchi pedagogik faoliyatida kognitiv modellar, mutaxassis sifatida o'zini o'zi tarbiyalab, pedagogik jarayonida qo'llab kelishi.

Ichki ishlar vazirligi malaka oshirish institutida harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni harbiy yo'nalishda tayyorlashning pedagogik-tarbiyaviy jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- o'qituvchi harbiy pedagogika sohasida eng yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, ilg'or tajribalarni o'rganish, pedagogik-tarbiyaviy mahoratini oshirish;
- tinglovchilarni harbiy ilmiy bilimlar bilan qurollantirish va nazorat qilish;
- tinglovchilarning harbiy tayyorgarligini shakllantirishda amaliy ko'nikma va malakalarni hamda jangovar fazilatlarni shakllantirish;
- harbiy tayyorgarlik bo'yicha tinglovchilarni faoliyatga psixologik tayyorlash.

Harbiy-pedagogik, harbiy-tarbiya jarayonning asosiy maqsadi, bitiruvchining kelgusidagi amaliy faoliyatiga har tomonlama mamlakatimizda fuqarolarning huquq, erkinligi va qonuniy manfaatlarini har qanday ko'rinishdagi tajovuzlardan himoya qilishga tayyor bo'lishini ta'minlashdan iborat.

²¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида”ги Фармони // ПФ-5847-сон.

Institutning harbiy pedagogik-tarbiyaviy jarayonidagi asosiy shaxs – pedagogdir. Tinglovchilar bilan faol munosabatda bo'lgan o'qituvchi ularda mutlaqo ma'lum qarashlar va e'tiqodlarni, fikrlash va harakat qilish usullarini shakllantiradi.

Harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirishda o'qituvchining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

tinglovchini harbiy vatanparvar, Vatanni himoya qilish uchun bor kuchini berishga tayyor shaxs sifatida maqsadli tarbiyalash;

tinglovchini faollik, maxsus, ijtimoiy, kommunikativ va boshqa zarur kompetensiyalar bilan qurollantirish;

tinglovchining jangovar shayligini rivojlantirish;

tinglovchida harbiy bilim ko'nikmalarini shakllantirish;

tinglovchilarni xizmatdagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga va tashqaridan mumkin bo'lgan tajovuzni qaytarishga hissiy-irodaviy barqarorlik va psixologik tayyorgarligini rivojlantirish.

Bizning ilmiy izlanishlarimiz shundan dalolat beradiki, harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilar ongiga milliy iftixor g'oyalarini singdirishning pedagogik-tarbiyaviy jihatlari bo'yicha turli yondashuvlar mavjud. Pedagogik jihatdan o'qitish va tarbiyalashga qaratilgan pedagogik faoliyatning namunali bo'lishiga intilish, uni amalga oshirishning turli sharoitlarida o'zini namoyon qilish, barqaror usul va usullar tizimini ishlab chiqish.

Bunda ta'lim beruvchi o'qituvchining pedagogik-tarbiyaviy jihatlari quyidagi jarayonlarda ma'lum bo'ldi:

taqdim etilayotgan o'quv materiali bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish; uning asosiy g'oyalarini ajrata olish;

o'quv jarayonining samaradorligiga erishish uchun turli xil o'qitish usullarini o'zlashtira olishi;

o'qituvchi sifatida barqaror kasbiy mavqeini saqlab qolishi;

o'z kasbiy rivojlanish istiqbollari ko'rish va pedagogik faoliyatida ijodiy mexanizmlardan doimiy foydalana olishi;

aniq va ifodali nutqqa ega hamda baholashda obektiv qobiliyatga ega bo'lish;

psixologik bilimlarga ega bo'lish;

mashg'ulotlar davomida nafaqat o'quv muhiti, balki mashg'ulot jarayonida sodir bo'ladigan qulay pozitsiyasini yarata olishi;

tinglovchilarga o'rganilayotgan materialning amaliy ahamiyatini ko'rsata olishi;

pedagogik mahoratini oshirishga intilishi.

Harbiy fanlarni o'qitish jarayonida o'qituvchilarning pedagogik faoliyatidagi asosiy strategik yo'nalish tinglovchilarga yo'naltirilgan ta'lim bilan bog'liq. Bu tinglovchining shaxsiyati o'qituvchining diqqat markazida bo'ladigan mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. Bizningcha, bunday ta'lim tizimi falsafa, psixologiya va pedagogikadagi gumanistik yo'nalishni aks ettiradi.

Polshalik olim Yanush Korchak gumanistik pedagogika o'quvchi shaxsi, uning individual qiziqishlari va qobiliyatini hisobga olishga qaratilganini ta'kidlagan. Gumanistik pedagogika tinglovchini ta'lim-tarbiya jarayonining ongli va faol ishtirokchisi deb hisoblaydi, ma'lum hajmdagi ma'lumotlarni o'zlashtirishga nisbatan intellektual fazilatlarni har tomonlama rivojlantirishga ustuvor ahamiyat beradi hamda tinglovchini erkin va faol, o'zini o'zi boshqarish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxs sifatida kamol toptirishni maqsad qiladi va boshqa yondashuvlar bilan solishtirganda, gumanistik pedagogika o'quvchiga ta'limda ko'proq tanlash erkinligini beradi. Demak, harbiy pedagogikada jarayonida professor-o'qituvchilar gumanistika ta'limning yetakchi tamoyillaridan biri bo'lib pedagog va tinglovchilar o'rtasidagi qulay muhitni o'rnatish muhim rol o'ynaydi. Ushbu tamoyilni amalga oshirish qoidalariga quyidagilar kiradi: o'quvchining huquqlarini to'liq tan olish va uni hurmat qilish, oqilona talabchanlik bilan birga tinglovchining ijobiy fazilatlariga tayanish; muvaffaqiyatli vaziyatni yaratish; istiqloq tarbiyasi uchun sharoit yaratish.

G.A.Sultanova, N. Sayidahmedov izlanishlarida pedagogik mahorat pedagogning pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va subyektiv jihatdan o'ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish hamda boshqarish qobiliyati va malakasiga egaligini anglatashini ko'rsatib berdi. Demak, pedagogik mahorat pedagogikaning muhim jihati bo'lib, pedagogning mahorati bevosita kasbiy-pedagogik faoliyatda ko'rinadi, bu jarayonda o'qituvchi ustuvor ahamiyat kasb etadigan qonuniyatlardan xabardor bo'lishi, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish mexanizmlarini puxta bilishi va egalab olishi lozim.

Harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirishda o'qituvchi yuksak mahoratli, harbiy ta'lim ustasi, boy tajribaga ega, o'ziga nisbatan talabchan, kasbiy faoliyatiga ijodiy munosabatda bo'lishi, harbiy pedagogikani yetarli darajada egalashi o'qituvchi va tinglovchilar bilan ijobiy shaxsiy munosabatini shakllantirib borishi, malakasini oshirishga intiluvchan, bilimlarini boyitib boruvchi, vujudga kelgan nizolarni ijobiy hal qilishi, tinglovchilar bilan o'zaro munosabatni o'rnatish kabilar ham o'rin oladi.

Xulosa qilib aytganda harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirish to'g'risidagi ilmiy manbalar tahlili natijasida quyidagi pedagogik-tarbiyaviy jihatlari aniqlandi:

- harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirishda harbiy pedagogika jarayonida yetakchi tamoyillaridan biri bo'lib o'qituvchi va tinglovchilar o'rtasida qulay muhit yaratish va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, o'z burchiga sodiq, vatanparvar va halqparvar shaxslarni tarbiyalash orqali tinglovchining qobiliyatlari, shaxsiy sifatleri va tajribasiga bog'liq bo'lgan ko'nikma va malakalar, mazkur jarayonda individual yondashuvning asosiy omillari aniqlandi;

- bugungi kunda harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirish interfaol ta'lim va uning didaktik imkoniyatlaridan keng foydalanib, uning normalari va tartib-qoidalariga amal qilish ustuvor hisoblanib, pedagogik-psixologik jihatlari tinglovchilar olgan harbiy bilimlarini amaliy faoliyatda va keng

doiradagi hayotiy vazifalarni yechishda qo'llay oladigan kadrlarni tayyorlashdan iborat ekani ta'kidlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ro'zieva D.I. Oliy malaka oshirish instituti talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning ilmiy pedagogik asoslari // dissertatsiya. – Toshkent. 2007.

2. Xaydaraliev X.X. Talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirish (harbiy ta'lim yo'nalishlari misolida) // avtor. diss. falsafa doktori (Rhd) – Toshkent. 2021.

3. Kurbonov R.Yu. «Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g'oyaning o'rni» // p.f.n. dissertatsiya. – Toshkent. 2008.

4. Hajieva M.S. Milliy ongda tolerantlikni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili // avtor. diss. p.f.n. – Toshkent.

5. Baxronov D.D. O'zbekiston tarixi // O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ta'lim muassasalariga tavsiya etilgan Darslik. – T., 2011.

6. Соктуев Б.С. Современные тенденции развития педагогических технологий в медицинском образовании: материалы Всерос. науч.-практ. конф. с международным участием посвященной 75-летию Красноярского государственного медицинского университета им. проф. В.Ф. Войно-Ясенецкого / Красноярск, 2017. - С.522-524.

7. G.Boiymer. Geschichte der Gymnasialkurse für Frauen zu Berlin. Moeser, Berlin 1906, p.152